



**XALQ DEPUTATLARI SAMARQAND VILOYATI
SAMARQAND SHAHAR KENGASHI
QARORI**

2023 - yil 30 - yanvar

VI-78-6-7-107-K/23

Samarqand shahar hokimligi

**Xalq deputatlari Samarqand shahar Kengashi doimiy
komissiyalarining 2023-yil I yarim yilligiga
mo'ljallangan Ish rejalari to'g'risida**

Xalq deputatlari Samarqand shahar Kengashi Reglamentining 43-moddasiga binoan Xalq deputatlari shahar Kengashining navbatdagi VI chaqiriq, LXXVIII sessiyasi

QAROR QILADI:

1. Xalq deputatlari Samarqand shahar Kengashi doimiy komissiyalarining 2023-yil I yarim yilligiga mo'ljallangan Ish rejalari 1-8-ilovalarga muvofiq tasdiqlansin.
2. Xalq deputatlari shahar Kengashi doimiy komissiyalari raislari hamda shahar hokimi o'rinbosarlari zimmasiga ushbu Ish rejalarning belgilangan muddatlarda va to'liq bajarilishini ta'minlash vazifasi topshirilsin.
3. Xalq deputatlari shahar Kengashi doimiy komissiyalarining 2023-yil I yarim yilligiga mo'ljallangan Ish rejalari bajarilishini nazorat qilish doimiy komissiyalar raislari hamda Kengash kotibiyati mudiri (Ochilov) zimmalariga yuklatilsin.

Kengash raisi



F.Umarov

Xalq deputatlari Samarqand shahar
Kengashining
2023 yil 30 yanvardagi
VI-78-6-7-107-K/23-son qaroriga
1-ilova

Xalq deputatlari Samarqand shahar Kengashining “Mahalliy budjetni shakllantirish va ijro etish, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi”ning 2023-yil birinchi yarim yillikga mo‘ljallangan

ISH REJASI

№	Belgilangan vazifalar	Bajarish muddati	Mas’ul ijrochilar
1.	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasida bildirilgan taklif va tavsiyalar, belgilab berilgan ustuvor yo‘nalishlar xususida shahar hududidagi mahallalarda, ta’lim muassasalarida turkum davra suhbatlari o‘tkazish.	2023-yil Yanvar-fevral	M.Sayfiddinova, komissiya a’zolari
2.	Hududni kompleks rivojlantirish bo‘yicha tasdiqlangan dasturlari va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishni asosiy prognoz ko‘rsatkichlarining bajarilishi yuzasidan tizimli monitoring ishlarini olib borish. Sohaga tegishli qarorlarning ijrosini ta’minlash maqsadida va ushbu sohadagi o‘zgarishlar va yangiliklarni keng ommaga yetkazish maqsadida joylarda tizimli ravishda seminar-treninglar o‘tkazish.	2023-yil fevral	M.Sayfiddinova, komissiya a’zolari, Samarqand shahar tegishli tashkilot va muassasa rahbarlari
3.	2023-yilga yurtimizda “Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili” , deb nomlanishi munosabati bilan har bir insonning tinch va baxtli hayot kechirishi, uning sog‘lig‘i joyida bo‘lishi, yaxshi ta’lim olishini ta’minlashda mutassadi tashkilot rahbarlarining hisobotlarini eshitish	2023-yil mart	M.Sayfiddinova, komissiya a’zolari, Samarqand shahar tegishli tashkilot va muassasa rahbarlari
4.	“Ijtimoiy-madaniy rivojlantirish oila, xotin-qizlar va yoshlar masalalari bo‘yicha doimiy komissiya” bilan hamkorlikda Ayollar va yoshlar daftarlariga kiritilgan xotin-qizlar va yoshlar bandligini ta’minlash, ularni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash maqsadida mahallalarda olib borilayotgan ishlarni joylarda o‘rganish va ushbu masalalarda tegishli tashkilotlarning xisobotini eshitish.	2023-yil aprel	M. Sayfiddinova va komissiyalar a’zolari

5.	Aholi bandligini ta'minlash maqsadida mahalla fuqarolar yig'inlaridagi hokim yordamchilari, hamda bandlikka ko'maklashish markazlari tomonidan amalga oshirilayotgan ishlar bo'yicha hisobotlarini eshitish.	2023-yil may	Bandlikka ko'maklashish markazi rahbari, hokim hokim yordamchilari, "Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash" bo'limi va komissiya a'zolari
6.	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 20-dekabrida Oliy Majlisga va xalqimizga yo'llagan Murojaatnomasida ilgari surilgan takliflardan kelib chiqqan holda o'zini - o'zi boshqarish organlari -mahallalarda aholi tomonidan kutarilayotgan suv, elektr energiyasi, yo'l va maktab masalalarida amalga oshirilayotgan ishlar holati yuzasidan mutasaddi tashkilotlarning hisobotlarini eshitish	2023-yil may	M.Sayfiddinova, komissiya a'zolari, Samarqand shahar tegishli tashkilot va muassasa rahbarlari
7.	O'zini - o'zi boshqarish organlari - mahallalarda aholi turmush farovonligini yuksaltirish, aholini bandligini ta'minlashga ko'maklashish tadbirkorlik faoliyati va biznesni rivojlantirish hisobiga ish o'rinlarini yaratish, band bo'lmagan aholini foydali mehnatga jalb etish borasida amalga oshirilayotgan ishlari to'g'risida mutasaddilar hisobotini eshitish.	2023-yil iyun	Dj. Bagirov, komissiya a'zolari, "Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash" bo'limi
8.	Doimiy komissiyaning 2023-yilning 1-choragi ish rejasi ijrosi hamda 2023-yilning 2-choragiga mo'ljalangan Ish rejalari to'g'risida doimiy komissiya a'zolarining hisobotlari va takliflarini eshitish	2023-yil iyun	M. Sayfiddinova va komissiya a'zolari

Xalq deputatlari Samarqand shahar
Kengashining
2023 yil 30 yanvardagi
VI-78-6-7-107-K/23-son qaroriga
2-ilova

Xalq deputatlari Samarqand shahar Kengashining “Sud-huquq va korrupsiyaga qarshi kurashish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi”ning 2023-yilning birinchi yarim yilligiga mo‘ljallangan

ISH REJASI

№	Belgilangan vazifalar	Bajarish muddati	Jalb etiladigan tashkilotlar	Mas’ul ijrochilar
1.	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasida bildirilgan taklif va tavsiyalar, belgilab berilgan ustuvor yo‘nalishlar xususida shahar hududidagi mahallalarda, ta’lim muassasalarida turkum davra suhbatlari o‘tkazish.	Yanvar fevral	Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash shahar bo‘limi, Yoshlar agentligi, MFY, Adliya boshqarmasi, advokatlar palatasi	X.To‘xtaev
2.	2023-yilga yurtimizda “Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili” , deb nomlanishi munosabati bilan har bir insonning tinch va baxtli hayot kechirishi, uning sog‘lig‘i joyida bo‘lishi, yaxshi ta’lim olishini ta’minlashda mutassadi tashkilot rahbarlarining hisobotlarini eshitish	mart	Ijtimoiy masalalar bo‘yicha hokim o‘rinbosari, shahar xalq ta’limi, shahar tibbiyot birlashmasi	M.Bababekova D.Kamalova
3.	Umumta’lim muassasalari faoliyati samaradorligini baholash va Milliy reyting natijalariga ko‘ra past ko‘rsatgichlarga erishgan Samarqand shahridagi umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida olib borayotgan ishlar xususida mutassadi tashkilot rahbarlarining hisobotini eshitish.	aprel	Shahar xalq ta’limi bo‘limi	M.Bababekova
4.	Aholi bandligini ta’minlash maqsadida mahalla fuqarolar yig‘inlaridagi hokim yordamchilari, hamda bandlikka ko‘maklashish markazlari tomonidan amalga oshirilayotgan ishlar bo‘yicha hisobotlarini eshitish.	may	Bandlikka ko‘maklashish markazi rahbari, hokim hokim yordamchilari, shahar mahalla bo‘limi rahbari	Komissiya a’zolari
5.	Jinoyatchilik va huquqbuzarlik holatlarini keng muhokama qilish, uning oldini olishda Sudlarning tarbiyaviy-profilaktik rolini oshirishda joylarda amalga oshirilayotgan ishlar yuzasidan axborotini tinglash	Har chorakda	Samarqand shahar fuqarolar sudi, Ma’muriy sudi, jinoyatchilik sudi sudyalari	M.Bababekova

6.	Korrupsiyaga oid va boshqa jinoyatchilikka qarshi kurashish, uni oldini olish, jamoat tartibi va fuqarolar xavfsizligini ta'minlash, budget hisobidan qurilayotgan uy-joylarning holati yuzasidan tegishli tashkilot rahbarlarining axborotlarini tinglash	Har chorakda	Samarqand shahar prokuraturasi va Samarqand shahri bo'yicha ichki ishlar organlari faoliyatini muvofiqlashtirish boshqarmasi, shahar adliya bo'limi, qurilish ishlari bo'yicha hokim o'rinbosari	M.Bababekova
7.	Samarqand shahar prokurori va shahar ichki ishlar boshqarmasi boshlig'ining 2023-yil 1-choragida qonuniylikni ta'minlash, jinoyatchilikni oldini olishda amalga oshirgan ishlari yuzasidan hisobotini eshitish	1-chorak yakunida	Samarqand shahar prokuraturasi, Samarqand shahar Ichki ishlar boshqarmasi	M.Bababekova
8.	Doimiy komissiyaning 2023-yilning 1-choragi ish rejasi ijrosi hamda 2023-yilning 2-choragiga mo'ljallangan Ish rejaları to'g'risida	iyun	Doimiy komissiya yig'ilishi	M.Bababekova, komissiya a'zolari

Xalq deputatlari Samarqand shahar
Kengashining
2023 yil 30 yanvardagi
VI-78-6-7-107-K/23-son qaroriga
3-ilova

**Xalq deputatlari Samarqand shahar Kengashining “ Ijtimoiy-madaniy,
yoshlar siyosati, xotin-qizlar va gender tenglik masalalari bo‘yicha doimiy
komissiyasi”ning 2023-yil uchun mo‘ljallangan birinchi yarim yilligiga
mo‘ljallangan**

ISH REJASI

№	Belgilangan vazifalar	Bajarish muddati	Jalb etiladigan tashkilotlar	Mas’ul ijrochilar
1	O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasi yuzasidan mazmun mohiyatini axoli va tashkilotlar o‘rtasida tushuntirish ishlari olib borish	Yanvar-fevral	MFY, tashkilotlarda	Doimiy komissiya a‘zolari
2	O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasi “Avval – inso, keyin – jamiyat va davlat” shiori ostida boshqarma va tashkilot rahbarlarini jalb qilgan holda aholi o‘rtasida uchrashuvlar o‘tkazish	Yil davomida	Barcha boshqarma va tashkilot rahbarlari, MFY faollari	Doimiy komissiya a‘zolari
3	“Ayollar daftari” va “Yoshlar”ga ro‘yxatga kiritilishi xotin-qizlar va yoshlarning bandligi ta’minlanishi yuzasidan ko‘zda tutilgan maqsad va vazifalar yuzasidan hisobotni eshitish	2023-yil 1 chorak	Samarqand shahar hokimligi hokim o‘rinbosarlari, tegishli tashkilotlar rahbarlari	B.Sultanov
4	Samarqand shahrida byudjet hisobidan qurilayotgan qurilish yo‘l va boshqa qurilishlar sifatini nazorat qilish	Yil davomida	Samarqand shahar prokuraturasi va Samarqand shahri bo‘yicha ichki ishlar organlari faoliyatini muvofiqlashtirish boshqarmasi, Fuqarolik, ma‘muriy, iqtisodiy, jinoiy ishlar bo‘yicha sudlar, shahar adliya bo‘limi	Komissiya a‘zolari

5	Yoshlar va ayollar o'rtasida "Yashil makon" umummilliy loyihasi targ'ib qilish hamda ushbu loyihaga jalb qilish	Fevral, mart, aprel	MFY, maktab va oliy ta'lim muassasalari	B.Sultanov, komissiya a'zolari
---	---	---------------------	---	--------------------------------

Xalq deputatlari Samarqand shahar
Kengashining
2023 yil 30 yanvardagi
VI-78-6-7-107-K/23-son qaroriga
4-ilova

Xalq deputatlari Samarqand shahar Kengashi huzuridagi Nodavlat, notijorat, ta'lim, sog'liqni saqlash, madaniyat, sport va turizm masalalari bo'yicha doimiy komissiyaning 2023-yillining birinchi yarim yilligiga mo'ljallangan

ISH REJASI

No	Tadbirlarning mazmuni	Ijro muddati	Ham ijrochilar
1.	2023-yilda amalga oshiriladigan ishlar rejasini ishlab chiqish;	2023-yil yanvar	Doimiy komissiya a'zolari
2.	2023-yil «Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili»da Samarqand shaharda mavjud 152 ta nodavlat notijorat tashkilotlari (NNT)dan 15 tasining faoliyati bilan yaqindan tanishish hamda jamiyatlar faoliyatida yuzaga kelgan muammolar yechimi yuzasidan tegishli mas'ul tashkilotlar hamkorligida amaliy choralar ko'rish.	2023-yil yanvar-iyul	Doimiy komissiya a'zolari, shahar hokimligi
3.	Ta'lim sifatini oshirish — Yangi O'zbekiston taraqqiyotining yakkayu yagona to'g'ri yo'lidir, degan g'oya asosida Samarqand shahardagi umumta'lim hamda maktabgacha ta'lim muassasalarda olib borilayotgan ta'lim-tarbiya jarayoni bilan yaqindan tanishib borish hamda ularning sharoiti, moddiy-texnik ta'minotini tahlil qilgan holda, ularni yaxshilash bo'yicha takliflarni shakllantirish va tegishli manzilli dasturlarga kiritish yuzasidan takliflarni ishlab chiqish.	2023-yil yanvar-may	Doimiy komissiya a'zolari, shahar hokimligi
4.	Maktab direktori lavozimiga tavsiya qilingan nomzodlarni o'rganish va xulosalar berish, shuningdek direktorlikka ma'qullangan nomzodlarning uch yillik dasturlari bajarilishini nazorat qilib borish, zarur hollarda ularning faoliyatiga baho bergan holda kadrlar tayyorlashni yaxshilash, hududning intellektual salohiyatini saqlab qolish maqsadida Kengashning oliy o'quv yurtlari bilan hamkorligi masalalarini dastlabki tarzda o'rganish va uni kuchaytirish bo'yicha takliflar kiritish.	2023-yil yanvar-iyun	Doimiy komissiya a'zolari hamda Kengash deputatlari
5.	Shahar turizm va sport bo'limi, madaniyat bo'limi tomonidan olib boriladigan chora-tadbirlar bilan yaqindan tashish hamda ushbu sohalarini yanada rivojlantirish borasida takliflar ishlab chiqish.	2023-yil yanvar-iyun	Doimiy komissiya a'zolari, shahar sport, madaniyat, turizm bo'limlari

6.	Samarqand shaharda tibbiy yordam ko'rsatish sifatini yanada yaxshilash maqsadida mahalliy davolash-profilaktika muassasalarini, shu jumladan, tabiiy-iqlim sharoitlarini hisobga olgan holda rivojlantirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish, hududning "tibbiy xaritasi" shakllantirilishi, undan kelib chiqqan holda, aholiga zarur va sifatli tibbiy xizmat ko'rsatilishi bo'yicha nazorat olib borish.	2023-yil yanvar-iyun	Doimiy komissiya a'zolari, shahar tibbiyot birlamshmasi
----	---	-------------------------	---

Xalq deputatlari Samarqand shahar
Kengashining
2023 yil 30 yanvardagi
VI-78-6-7-107-K/23-son qaroriga
5-ilova

Kengashining “Sanoat, tpancopt, qurilish, aloqa, kommunal xo‘jaligi va aholiga xizmatlar ko‘rsatish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi”ning 2023 yilning birinchi yarim yilligiga mo‘ljallangan

ISH REJASI

T/R	Tadbirning nomi	Bajarish muddati	Masul ijrochilar
1.	O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan qabul qilinayotgan Qonunlar, Prezident farmonlari va Vazirlar Mahkamasi tomonidan qabul qilingan qarorlar, dasturlar va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarni o‘rganib borish hamda ularning ijro joylarda qanday bajarilayotganligi ustidan deputatlik nazoratini o‘rnatish.	Doimiy ravishda	A.Axtamov M.Sattarova I.Asatullaev S.Xamraev
2.	Samarqand shahar Bosh rejasi va qurilish qoidalari loyihalarini o‘rganib chiqish va shahar hududidagi qurilish ishlari ushbu qoida asosida olib borilayotganligi ustidan deputatlik nazoratini o‘rnatish.	Doimiy ravishda	A.Axtamov
3.	Shahar Kengashining doimiy komissiyasiga tegishli qarorlar ijrosini ta‘minlash bo‘yicha olib borilgan ishlar muhokamasi	Doimiy ravishda	A.Axtamov M.Sattarova I.Asatullaev S.Xamraev
4.	Joylarda axolini qiynab kelayotgan masalalrni xal qilish maqsadida Sayyor qabullar tashkil etish.	Har chorakda	A.Axtamov M.Sattarova I.Asatullaev S.Xamraev
5.	Xalq deputatlari Samarqand shahar Kengashining 08.06.2021 yilda tasdiqlangan 06-31/238 sonli “Samarqand shahrida pullik avtoturargohlar faoliyatini hamda avtomobillar to‘xtash joylari tashkillashtirish maqsadida ishlab chiqilgan loyihasi to‘g‘risida” gi Qarori ijrosini nazorat qilish.	Fevral- mart oylarida	A.Axtamov M.Sattarova I.Asatullaev
6.	Samarqand shahar aholisini tabiiy gaz bilan ta‘minlash borasida amalga oshirilayotgan ishlar yuzasidan shahar gaz ta‘minoti korxonasi rahbarining hisobotini eshitish.	Yanvar oyida	A.Axtamov M.Sattarova I.Asatullaev S.Xamraev
7.	Samarqand shahar aholisini elektr energiya bilan ta‘minlash borasida amalga oshirilayotgan ishlar yuzasidan shahar elektr tarmoqlari korxonasi rahbarining hisobotini eshitish.	Fevral oyida	A.Axtamov M.Sattarova I.Asatullaev S.Xamraev

8.	Xalq deputatlari “Sanoat, transport, qurilish, aloqa kommunal hamda aholiga xizmat ko‘rsatish” masalalari bo‘yicha doimiy komissiyaning Samarqand shahridagi savdo, umumiy ovqatlanish joylari va bozorlar faoliyati to‘g‘risidagi 2021 yil 29-iyundagi 06-33/250 sonli Qarori ijrosini nazorat qilish.	May-iyun oylarida	A.Axtamov M.Sattarova I.Asatullaev S.Xamraev
9.	Samarqand shahar hududidagi maktablarni toza ichimlik suvi bilan ta‘minlanganlik holatini o‘rganish hamda aniqlangan muammolarni bartaraf etish mutasaddi idoralarga takliflar kiritish.	Mart oyida	A.Axtamov M.Sattarova I.Asatullaev S.Xamraev
10.	Samarkand shahar hududida aholiga transport xizmati ko‘rsatish bo‘yicha hududiy dastur ijrosini ta‘minlash yuzasidan amalga oshirilayotgan ishlarni o‘rganish va tegishli takliflar kiritish	Aprel oyida	A.Axtamov I.Asatullaev
11.	Samarqand shahar “Maroqand obod” DUK rahbarining hisobotini eshitish.	May oyida	A.Axtamov M.Sattarova I.Asatullaev S.Xamraev
12.	Aholiga xizmat ko‘rsatish markazlari va aloqa xizmati rahbarlarining Samarqand shahar aholisiga ko‘rsatayotgan xizmatlari bo‘yicha hisobotini eshitish.	Avgust oyida	A.Axtamov M.Sattarova I.Asatullaev S.Xamraev
13.	Doimiy komissiya va deputatlarning shaxsiy ish rejalari ijrosini ta‘minlash maqsadida 2023-yilning 2 yarim yilligiga mo‘ljallangan ish reja loyihalarini ishlab chiqish.	Iyun oyida	A.Axtamov M.Sattarova I.Asatullaev S.Xamraev

Xalq deputatlari Samarqand shahar
Kengashining
2023 yil 30 yanvardagi
VI-78-6-7-107-K/23-son qaroriga
6-ilova

Samarqand shahar Kengashining “Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi”ning 2023-yilning birinchi yarim yilligiga mo‘ljallangan

ISH REJASI

№	Belgilangan vazifalar	Bajarish muddati	Jalb etiladigan tashkilotlar	Mas’ul ijrochilar
1.	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasida bildirilgan taklif va tavsiyalar, belgilab berilgan ustuvor yo‘nalishlar xususida shahar hududidagi mahallalarda, ta’lim muassasalarida turkum davra suhbatlari o‘tkazish.	Yanvar	Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash shahar bo‘limi, Yoshlar agentligi, MFY, Adliya boshqarmasi, advokatlar palatasi	S.Zoxidova.
2.	2023-yilga yurtimizda “Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili” deb nomlanishi munosabati bilan har bir insonning tinch va baxtli hayot kechirishi, uning sog‘lig‘i joyida bo‘lishi, yaxshi ta’lim olishini ta’minlashda mutassadi tashkilot rahbarlarining hisobotlarini eshitish	fevral	Shahar hokimining yoshlar siyosati, ijtimoiy rivojlantirish va ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha o‘rinbosari, shahar xalq ta’limi, shahar tibbiyot birlashmasi	S.Zoxidova va doimiy komissiya a’zolari
3.	Samarqand shahrida olib borilayotgan ko‘kalamzorlashtirish, obodonlashtirish ishlari bo‘yicha olib borayotgan ishlar xususida mutassadi tashkilot rahbarlarining axborotini eshitish.	mart	Shahar obodonlashtirish bo‘limi	S.Zoxidova doimiy komissiya azolari
4.	Yurtboshimiz farmoniga muvofik tashkil etilgan “Yashil makon” umummilliy loyiha doirasida amalga oshirilgan ishlar nazorati, ekobog‘larni bugungi ahvolini monitoring qilish.	aprel	Ekologik partiya, doimiy komissiya va mutassadi tashkilotlar	Komissiya a’zolari
5.	Maktab va maktabgacha ta’lim muassasalarida yoshlarda atrof muhitga nisbatan ehtiyotkorona munosabatda bo‘lishni shakllantirish, tabiatni saqlash, havo, suv va tuproqni ifloslantirmaslik, o‘simlik va xayvonot dunyosiga ziyon yetkazmaslik, tabiatga mehri uyg‘otish borasida amalga oshirilayotgan ishlar yuzasidan axborotini tinglash	may	Samarqand shahar xalq ta’limi va doimiy komissiya azolari	S.Zoxidova
6.	Samarqand shahrida mavjud qabristonlar holatini o‘rganish	iyun	Doimiy komissiya a’zolari	S.Zoxidova

7.	Samarqand shahar obodonlashtirish va suv ta'minoti mutassadilarining 2023-yil 1-choragida shaharda amalga oshirgan ishlari yuzasidan hisobotini eshitish	1-chorak yakunida	Samarqand shahar obodonlashtirish, "Samarqand suv ta'minoti" MChJ Samarqand shahar bo'limi	S.Zoxidova
8.	Doimiy komissiyaning 2023-yilning 1-choragi ish rejasi ijrosi hamda 2023-yilning 2-choragiga mo'ljallangan Ish rejalari to'g'risida	iyun	Doimiy komissiya yig'ilishi	S.Zoxidova, komissiya a'zolari

Xalq deputatlari Samarqand shahar
Kengashining
2023 yil 30 yanvardagi
VI-78-6-7-107-K/23-son qaroriga
7-ilova

Xalq deputatlari shahar Kengashining Axborot siyosati va mahalliy davlat organlarida ochiqlikni ta'minlash masalalari bo'yicha doimiy komissiyasining 2023-yilning birinchi yarim yilligiga mo'ljallangan

ISH REJASI

T/r	Tadbirning nomi	Tadbirni bajarish muddati	Jalb etiladigan tashkilotlar nomi	Doimiy komissiyadan mas'ul
1	Xalq deputatlari shahar Kengashining Axborot siyosati va mahalliy davlat organlarida ochiqlikni ta'minlash masalalari bo'yicha doimiy komissiyasining 2023-yilga mo'ljallangan ish rejasini tuzish	Yanvar		H.Jo'raev, doimiy komissiya kotibi va a'zolari
2.	Shahar hokimligi, bo'lim va boshqarmalar rasmiy veb-saytlari va ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalarini ochiqlikka oid qonunchilik talablari asosida takomillashtirish yuzasidan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 16-iyundagi "Davlat organlari va tashkilotlarining faoliyati ochiqligini ta'minlash, shuningdek, jamoatchilik nazoratini samarali amalga oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-6247-sonli qarori hamda Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 15-iyundagi "Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatning rivojlanish holatini reyting baholash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 373-sonli qarori talablaridan kelib chiqib monitoring o'tkazish va ushbu qarorlardagi talablarni bajarmagan davlat organlari va tashkilotlari rahbarlarining hisobotlarini eshitish hamda aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish choralarini ko'rish.	Fevral	Viloyat axborot va ommaviy kommunikatsiyalar boshqarmasi, Shahar hokimligi axborot xizmati	H.Jo'raev, doimiy komissiya kotibi va a'zolari

T/r	Tadbirning nomi	Tadbirni bajarish muddati	Jalb etiladigan tashkilotlar nomi	Doimiy komissiyadan mas'ul
3.	Shahar hokimligi, korxonalar va tashkilotlardagi axborot xizmatlari faoliyatini samarali yo'lga qo'yilishini, axborot xizmatlari tomonidan tashkilotning korrupsiyaga qarshi kurashish yo'nalishida amalga oshirilayotgan ishlarni e'lon qilib borilishi ustidan deputatlik nazoratini o'rnatish.	Mart	Viloyat axborot va ommaviy kommunikatsiyalar boshqarmasi, Shahar hokimligi axborot xizmati	H.Jo'raev, doimiy komissiya kotibi va a'zolari
4.	Korrupsiya xavfi yuqori bo'lgan shahar tibbiyot birlashmasi, xalq ta'limi, maktabgacha ta'lim va qurilish bo'limlar rahbarlari ishtirokida korrupsiyaga qarshi kurashish, shu jumladan faoliyat ochiqqligini ta'minlash sohasida amalga oshirilgan ishlar yuzasidan eshituvlar tashkil etish. Doimiy komissiya majlislarida nodavlat notijorat tashkilotlar va ommaviy axborot vositlari ishtirokida tanlab olingan bo'limlarning axborotlarini eshitish	Aprel Doimiy	Shahar tibbiyot birlashmasi, xalq ta'limi, maktabgacha ta'lim va qurilish bo'limlari Tegishli tashkilotlar rahbarlari	H.Jo'raev doimiy komissiya a'zolari
5.	Keng jamoatchilikni davlat organlari va tashkilotlari faoliyatining ochiqqligini ta'minlashga oid normativ-huquqiy hujjatlar mazmunini tanishtirishga qaratilgan targ'ibot tadbirlarini amalga oshirish. Jumladan: Mahalliy davlat va nodavlat tele va radiokanallar orqali O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 16-iyundagi "Davlat organlari va tashkilotlarining faoliyati ochiqqligini ta'minlash, shuningdek, jamoatchilik nazoratini samarali amalga oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-6247-sonli qarori hamda Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 15-iyundagi "Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatning rivojlanish holatini reyting baholash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 373-sonli qarori mazmunini tushuntirishga qaratilgan maqola va xabarlarni OAV e'lon qilishni tashkil etish.	Doimiy	Doimiy komissiya a'zolari. Shahar hokimligi axborot xizmati. "Samarqand" gazetasi	H.Jo'raev va doimiy komissiya a'zolari

T/r	Tadbirning nomi	Tadbirni bajarish muddati	Jalb etiladigan tashkilotlar nomi	Doimiy komissiyadan mas'ul
6.	Shahar hokimligi hamda bo'lim va boshqarmalar faoliyati ochiqligini baholash yuzasidan tashkiliy choralar ko'rish, metodika asosida baholashni amalga oshirish, baholashda quyi o'rinlarda bo'lgan idoralar rahbarlariga taqdimnomalar kiritish hamda kamchiliklarni bartaraf etish yuzasidan tavsiyalar berish	May	Viloyat axborot va ommaviy kommunikatsiyalar boshqarmasi. Shahar hokimligi axborot xizmati. Doimiy komissiya a'zolari	H.Jo'raev va doimiy komissiya a'zolari
7.	Xalq deputatlari shahar Kengashi sessiyalarini internet tarmog'i va viloyat televideniyesi orqali jonli efirga uzatilishi ustidan doimiy nazorat o'rnatish. Bunda: Ijtimoiy tarmoqlar va rasmiy veb-saytlar orqali sessiyalar o'tkazilishi vaqti va sanasini oldindan e'lon qilinishi; Sessiyalarning internet tarmog'i yoki viloyat televideniyesi orqali to'liq va sifatli tarzda efirga uzatilishi; Sessiyalarning ijtimoiy tarmoqlarga joylashtirilgan translatsiyasilarini havolalarini kelgusida ham jamoatchilik ixtiyorida bo'lishini ta'minlash.	Doimiy	Viloyat axborot va ommaviy kommunikatsiyalar boshqarmasi, viloyat televideniyesi, Shahar hokimligi axborot xizmati	H.Jo'raev va doimiy komissiya a'zolari
8.	Xalq deputatlari shahar Kengashi deputatlarining deputatlik so'rovlari, ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlardagi chiqishlariga ma'sullar tomonidan munosabatlarni muhokama qilish.	Iyun	Tegishli ma'sullar	H.Jo'raev va doimiy komissiya a'zolari
7.	Xalq deputatlari shahar Kengashi huzuridagi Axborot siyosati va mahalliy davlat organlarida ochiqlikni ta'minlash masalalari bo'yicha doimiy komissiyaning olti oy davomidagi faoliyatini tanqidiy ko'rib chiqish va komissiya faoliyatini yanada takomillashtirish bo'yicha choralar ishlab chiqish.	Iyun	Doimiy komissiyalar a'zolari	H.Jo'raev va doimiy komissiya a'zolari
8.	O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining Axborot siyosati va davlat organlarida ochiqlikni ta'minlash masalalari qo'mitasining 2022-yil 25-maydagi 40-conli qarori ijrosi yuzasidan shahar maktabgacha ta'lim bo'limi rahbari S.Nomerovning ochiqlikka oid qonunchilik ijrosi bo'yicha axborotini eshitish	Doimiy	Shahar maktabgacha ta'lim bo'limi rahbari S.Nomerov	Doimiy komissiya a'zolari

T/r	Tadbirning nomi	Tadbirni bajarish muddati	Jalb etiladigan tashkilotlar nomi	Doimiy komissiyadan mas'ul
9.	Doimiy komissiya a'zolarining deputatlik faoliyati yuzasidan hisobotlarini eshitish va muhokama qilish	Doimiy	Doimiy komissiya a'zolari	H.Jo'raev, doimiy komissiya raisi
10.	Shahardagi oliy ta'lim muassasalari talabalari bilan birgalikda "Internetdan samarali foydalanish – davr talabi" mavzusida davra suhbatini o'tkazish.	Iyun	Samarqand davlat universiteti, Samarqand Iqtisodiyot va servis instituti, Samarqand davlat arxitektura va qurilish universiteti	H.Jo'raev va doimiy komissiya a'zolari
11.	"Davlat hokimiyati va boshqaruv organlari faoliyatining ochiqligi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni va sohaga oid boshqa qonunchilik hujjatlari ijrosi yuzasidan Budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi shahar bo'limi boshlig'ining axborotini eshitish	Doimiy	Budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi shahar bo'limi	H.Jo'raev va doimiy komissiya a'zolari
12.	O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining Axborot siyosati va davlat organlarida ochiqlikni ta'minlash masalalari qo'mitasining 2022-yil 5-iyuldagi 46-conli qarori ijrosi yuzasidan shahar Bandlik bo'limi boshlig'i I.Saydullaevning ochiqlikka oid qonunchilik ijrosi bo'yicha axborotini eshitish	Doimiy	Shahar Bandlik bo'limi	H.Jo'raev va doimiy komissiya a'zolari
13.	Doimiy komissiyaning 2023-yilda amalga oshirilgan ishlari haqida hisoboti va 2024-yilga mo'ljallangan ish rejasi.	Doimiy	Doimiy komissiya a'zolari	H. Jo'raev va doimiy komissiya a'zolari

Xalq deputatlari Samarqand shahar
Kengashining
2023 yil 30 yanvardagi
VI-78-6-7-107-K/23-son qaroriga
8-ilova

Xalq deputatlari Samarqand shahar Kengashining
“Reglament va deputatlik odobi masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi”ning
2023-yil birinchi yarim yilligiga mo‘ljallangan
ISH REJASI

T/p	Tadbirlar nomi	Muddat	Mas’ul ijrochilar
1	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasida bildirilgan taklif va tavsiyalar, belgilab berilgan ustuvor yo‘nalishlar xususida shahar hududidagi mahallalarda, ta’lim muassasalarida turkum davra suhbatlari o‘tkazish.	Doimiy	B.Rahmonov
2	Samarqand shahar Kengashi deputatlarining shaxsiy ish rejaları bilan tanishish va amaliy natijalarini tahlil etib borish	Doimiy	Doimiy komissiya a’zolari
3	Xalq deputatlari shahar Kengashi doimiy komissiyalari raislari hamda deputatlarining OAVdagi chiqishlarini rejalashtirishga ko‘maklashish	Fevral	Doimiy komissiya a’zolari
4	Samarqand shahar Kengashi doimiy komissiyalarining a’zolari o‘zaro tajriba almashishi uchun boshqa mahalliy kengashlar uchun uchrashuvlar, amaliy seminarlar o‘tkazish	Mart, Iyun	Doimiy komissiya a’zolari
5	Deputatlarning saylovchilar bilan uchrashuvlari va deputatlik so‘rovlari natijalarini o‘rganish va unga nisbatan munosabat bildirish	Doimiy	Doimiy komissiya a’zolari
6	Xalq deputatlari Samarqand shahar Kengashining “Doimiy komissiyalari reglament va deputatlik odoblariga rioya etilishini o‘rganish va komissiya a’zolari bilan muhokama etib borish	Har chorakda	Doimiy komissiya a’zolari
7	Doimiy komissiyalar tomonidan qabul qilingan qarorlar ijrosini monitoring qilib borish	Iyun	Doimiy komissiya a’zolari

8	Birinchi yarim yillik ish rejasini bajarishga ulgurmagan faollik ko'rsatmagan deputatlarning vakolatlarini siyosiy partiyalari boshqaruv kengashida muhokama qilish va tegishli choralar ko'rilishini ta'minlash	Iyun	Doimiy komissiya a'zolari
9	Deputatlarning birinchi yarim yillik ish faoliyatlari yuzasidan axborotlarini tayyorlash va shahar Kengashiga taqdim etish, muhokamalarda faollikni nazorat qilish	May	B.Rahmonov
10	Saylovchilar ishonchini oqlay olmagan, deputatlik ish rejasini bajarmaganlar holatlari bo'yicha monitoring ishlarini olib borish va natijasi bo'yicha Kengashga ma'lumotlar berib borish	Doimiy	B.Rahmonov va Doimiy komissiya a'zolari